

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI BOSHQARUVINING
QARORI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VALYUTA OPERATSIYALARINI AMALGA
OSHIRISH QOIDALARINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA**

**[O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 31-avgustda ro‘yxatdan
o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3281]**

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi va “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi qonunlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish qoidalari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar 2-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.
3. Mazkur qaror 2020-yil 1-sentabrdan kuchga kiradi.

Markaziy bank raisi M. NURMURATOV

Toshkent sh.,
2020-yil 29-avgust,
18/5-son

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 29-avgustdagi 18/5-son qaroriga
1-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish
QOIDALARI**

Oldingi tahririga qarang.

Mazkur Qoidalar O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari (bundan buyon matnda rezidentlar deb yuritiladi) va norezidentlari (bundan buyon matnda norezidentlar deb yuritiladi) tomonidan valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tartibini belgilaydi.

(muqaddima O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2023-yil 4-yanvardagi 30/35-sonli qarori (ro‘yxat raqami 3281-2, 08.02.2023-y.) tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 09.02.2023-y., 10/23/3281-2/0082-son)

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Qoidalarda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:
valyuta hisobvaraqlari — O‘zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan chet el valyutasidagi talab qilib olinguncha, jamg‘arma, muddatli va boshqa depozit hisobvaraqlar;
ichki valyuta bozori — valyuta birjasida, O‘zbekiston Respublikasi banklari o‘rtasida hamda bevosita tijorat banklarida mijozlar bilan amalga oshiriladigan chet el valyutasini sotib olish va sotish;
ichki valyuta operatsiyalari — O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el valyutasida amalga oshiriladigan operatsiyalar.
2. Ichki valyuta operatsiyalariga quyidagilar kiradi:
bojsiz savdo do‘konlaridagi hisob-kitoblar, shuningdek xalqaro tashishlarda transport vositalarining qatnov yo‘llarida yo‘lovchilarga tovarlarni realizatsiya qilish va xizmatlar ko‘rsatish chog‘idagi hisob-kitoblar bilan bog‘liq operatsiyalar;
vositachilar (vakillar) tomonidan norezidentlar bilan tovarlarni topshirish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish, axborot va intellektual faoliyat natijalarini, ularga bo‘lgan mutlaq huquqlarni berish bo‘yicha shartnomalar tuzish hamda ularni bajarish bilan bog‘liq xizmatlar ko‘rsatish chog‘ida vositachilar (vakillar) va komitentlar (ishonch bildiruvchilar) o‘rtasidagi operatsiyalar, shu jumladan

komitentlarga (ishonch bildiruvchilarga) pul summalarini (boshqa mol-mulkn) qaytarishga doir operatsiyalar;

tuzilgan shartnomalar asosida transport-ekspeditorlik xizmatlarini realizatsiya qilishdan ekspeditorlik kompaniyalarining hisobvarag'iga xorijdan kelib tushayotgan chet el valyutasidagi mablag'larni hisob-kitob qilishni va o'tkazishni nazarda tutuvchi operatsiyalar;

jismoniy shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga xizmat safarlari amalga oshirilishi bilan bog'liq xarajatlarini to'lash va ularning o'rnini qoplash bo'yicha operatsiyalar, shuningdek xizmat safarlari munosabati bilan berilgan, sarflanmay qolgan bo'nakni qaytarishga doir operatsiyalar;

rezident jismoniy shaxs tomonidan O'zbekiston Respublikasi banklarida ochilgan hisobvaraqlardan boshqa rezident jismoniy shaxslar foydasiga ularning O'zbekiston Respublikasi banklarida ochilgan hisobvaraqlariga nosavdo operatsiyalar bo'yicha o'tkazmalar;

agar oxirgi xaridor yoki sotuvchi norezident bo'lsa, vositachilar (vakillar) tomonidan majburiyatlar kliring natijalari bo'yicha bajarilishi lozim bo'lgan shartnomalarni tuzish va bajarish bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatish chog'ida vositachilar (vakillar) va komitentlar (ishonch bildiruvchilar) o'rtasidagi operatsiyalar;

majburiyatlar bajarilishining ta'minoti sifatida valyuta qimmatliklaridan foydalanish, shuningdek ularni undirish bilan bog'liq operatsiyalar;

yuridik shaxslarning ustav fondiga (ustav kapitaliga) valyuta qimmatliklarini kiritish va qaytarish bilan bog'liq operatsiyalar;

bank xizmatlarini amalga oshirish bilan bog'liq operatsiyalar;

xayriya faoliyati bilan bog'liq operatsiyalar;

meros huquqi bo'yicha valyuta qimmatliklarini olish bilan bog'liq operatsiyalar;

mazkur Qoidalarning 45-bandida belgilangan holatlarda naqd chet el valyutasini qabul qilish bilan bog'liq operatsiyalar;

ichki valyuta bozorida chet el valyutasini sotib olish va sotish operatsiyalari;

norezident yuridik shaxsning O'zbekiston Respublikasidagi investitsion faoliyati natijasida olingan dividendlari, daromadlari va qonuniy yo'l bilan topilgan boshqa mablag'larini ushbu norezident tomonidan O'zbekiston Respublikasida tashkil etilgan vakolatxona yoki doimiy muassasaga o'tkazish operatsiyalari;

tovar-xomashyo birjalarining ochiq elektron savdolarida norezidentlar tomonidan, shu jumladan birja brokerlari orqali tovarlarni sotish va sotib olish bilan bog'liq o'tkazmalar;

qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilarining ochiq elektron savdolarida norezidentlar tomonidan, shu jumladan birja brokerlari va investitsiya vositachilari orqali aksiyalarni sotish va sotib olish bilan bog'liq o'tkazmalar;

xorijiy davlatlarning diplomatik vakolatxonalariga konsullik yig'imlarini to'lash;

sudlarning qarorlari asosida pul mablag'larini to'lash.

Ichki valyuta operatsiyalari rezidentlar va norezidentlar tomonidan ushbu Qoidalarga muvofiq cheklovlarsiz amalga oshiriladi.

3. Rezidentlar va norezidentlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi banklarida hisobvaraqlarni ochish O'zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank hisobvaraqlari to'g'risidagi [yo'riqnomada](#) (ro'yxat raqami 1948, 2009-yil 27-aprel) belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

4. O'zbekiston Respublikasi banklari xorijiy banklar bilan tuzilgan shartnomalarga (kelishuvlarga, bitimlarga) asosan milliy va chet el valyutasida o'zaro vakillik hisobvaraqlari ochishlari hamda ushbu hisobvaraqlardan shartnomada ko'rsatilgan maqsadlar doirasida foydalanishlari mumkin.

5. Xalqaro moliya institutlarining O'zbekiston Respublikasi banklarida ochilgan hisobvaraqlaridan tomonlar o'rtasida tuzilgan shartnomalarda ko'rsatilgan maqsadlarda foydalaniladi.

6. Rezident yuridik shaxslarning nomiga kelib tushayotgan valyuta mablag'lari, agar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlarida

yoxud O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, ularning O‘zbekiston Respublikasi banklaridagi hisobvaraqlariga kiritilishi shart.

7. Norezidentlar O‘zbekiston Respublikasi banklarida ochilgan milliy valyutadagi hisobvaraqlariga qonuniy yo‘l bilan topilgan mablag‘lari kiritiladi va ulardan mazkur Qoidalarga muvofiq mustaqil ravishda foydalanadilar.

8. Rezidentlar va norezidentlar O‘zbekiston Respublikasi banklaridagi o‘z hisobvaraqlaridan mablag‘larini O‘zbekiston Respublikasining boshqa banklarida ochilgan o‘z hisobvaraqlariga cheklovlarsiz o‘tkazishlari mumkin.

9. Tijorat banklari tomonidan chet el valyutasini sotish va sotib olish operatsiyalari valyuta pozitsiyasiga nisbatan o‘rnatilgan limitlar doirasida amalga oshiriladi.

10. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (bundan buyon matnda Markaziy bank deb yuritiladi) va tijorat banklari bevosita o‘zlari o‘rtasida, o‘z mijozlari bilan, shuningdek valyuta birjasi orqali valyutaviy svop operatsiyalarini Xalqaro svoplar va derivativlar assotsiatsiyasining (International Swaps and Derivatives Association — ISDA) svop bitimini tuzishning namunaviy shartlari va tavsiyalari asosida amalga oshiradilar.

11. Kapital harakati operatsiyalari Kapital harakati bilan bog‘liq ayrim valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida **nizomda** (ro‘yxat raqami 2536, 2013-yil 17-dekabr) belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

12. Tijorat banklari valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga to‘liq rioya etishlari lozim.

(12-band O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 28-iyuldagi 16-mh-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3313, 28.07.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son)

2-bob. Tijorat banklari tomonidan rezidentlarning chet el valyutasidagi hisobvaraqlarini yuritish

13. Rezident yuridik shaxslarning, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlarning chet el valyutasidagi mablag‘lari O‘zbekiston Respublikasi banklarida ochilgan valyuta hisobvaraqlarida saqlanadi va ular ushbu mablag‘lardan mazkur Qoidalarga muvofiq mustaqil ravishda foydalanadilar.

14. Rezident yuridik shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi hisobvaraqlardan ushbu hisobvaraqlarni ochish uchun asos bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlarida yoxud O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan maqsadlarda foydalanishga yo‘l qo‘yiladi.

Xorijiy davlatlarda hisobvaraqlar ochgan rezident yuridik shaxslar tomonidan har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 25 sanasiga qadar davlat ro‘yxatidan o‘tgan joydagi davlat soliq xizmatiga hamda asosiy hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatuvchi tijorat bankiga hisobvaraqlar ochilganligi (yopilganligi) to‘g‘risida va hisobvaraqlarning rekvizitlari o‘zgarganligi haqida, shuningdek ushbu hisobvaraqlardagi qoldiqlar va aylanmalar to‘g‘risida ma‘lumotlar ilovada keltirilgan shaklga muvofiq taqdim etiladi.

15. Rezident yuridik shaxslarning va yakka tartibdagi tadbirkorlarning valyuta hisobvaraqlariga ichki va xalqaro valyuta operatsiyalari bo‘yicha chet el valyutasi kiritilishi mumkin.

Valyuta hisobvaraqlardagi mablag‘lardan hisobvaraq egasining topshirig‘iga ko‘ra:

ichki valyuta operatsiyalari uchun;

joriy xalqaro operatsiyalar uchun;

Oldingi tahrirga qarang.

qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda kapital harakati operatsiyalari uchun;

(15-bandning beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 28-iyuldagi 16-mh-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3313, 28.07.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son)

xizmat safari xarajatlari uchun, shu jumladan, naqd shaklda foydalanilishi mumkin.

16. Rezident jismoniy shaxslarning nomiga kelib tushayotgan valyuta mablag'lari ularning hisobvaraqlariga cheklovlarsiz kiritiladi hamda ushbu mablag'lardan mustaqil ravishda foydalaniladi.

3-bob. Tijorat banklari tomonidan norezidentlarning chet el valyutasidagi hisobvaraqlarini yuritish

17. O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan, immunitet va diplomatik imtiyozlardan foydalanadigan xorijiy davlatlarning diplomatik vakolatxonolari, xalqaro tashkilotlar va ularning filiallari, shuningdek xo'jalik yoki boshqa tijorat faoliyatini amalga oshirmaydigan O'zbekiston Respublikasidagi boshqa xorijiy tashkilotlar vakolatxonalarining (bundan buyon matnda norezidentlarning vakolatxonolari deb yuritiladi) chet el valyutasidagi hisobvaraqlariga:

O'zbekiston Respublikasining hududida olingan konsullik yig'implari;

vakolatxona tashkil etgan norezidentning xorijdagi hisobvarag'idan o'tkazilgan mablag'lar;

vakolatxona tashkil etgan norezidentning O'zbekiston Respublikasidagi investitsion faoliyati natijasida olingan dividendlari, daromadlari va qonuniy yo'l bilan topilgan boshqa mablag'lari;

ichki valyuta bozorida sotib olingan mablag'lar;

yo'lovchi bojxona deklaratsiyasi asosida xorijdan olib kelingan naqd chet el valyutasi, bundan deklaratsiya to'ldirish talab etilmaydigan holatlar mustasno;

xorijdan hisobvaraq egasi nomiga pochta jo'natmalari orqali yuborilgan naqd chet el valyutasi kiritilishi mumkin.

Norezidentlar vakolatxonalarining chet el valyutasidagi hisobvaraqlardagi mablag'lardan hisobvaraq egasining topshirig'iga ko'ra:

vakolatxona tashkil etgan norezidentning xorijdagi hisobvarag'iga o'tkazish uchun;

chet elga nosavdo tUSDagi pul o'tkazmalarini amalga oshirish uchun;

chet el valyutasidagi operatsiyalar bo'yicha bankning vositachilik haqini, xodimlarning O'zbekiston Respublikasidan tashqariga xizmat safariga jo'natilishi bilan bog'liq xarajatlarni (shu jumladan, naqd shaklda) to'lash uchun;

O'zbekiston Respublikasi hududidagi tijorat banklari orqali sotish uchun foydalanilishi mumkin.

18. Norezidentlar doimiy muassasalarining chet el valyutasidagi hisobvaraqlariga:

doimiy muassasa tashkil etgan norezidentning xorijdagi hisobvarag'idan o'tkazilgan mablag'lar;

doimiy muassasa tashkil etgan norezidentning O'zbekiston Respublikasidagi investitsion faoliyati natijasida olingan dividendlari, daromadlari va qonuniy yo'l bilan topilgan boshqa mablag'lari;

ichki valyuta bozorida sotib olingan mablag'lari;

joriy xalqaro operatsiyalariga oid o'tkazmalar kiritilishi mumkin.

Norezidentlar doimiy muassasalarining chet el valyutasidagi hisobvaraqlaridagi mablag'lardan hisobvaraq egasining topshirig'iga ko'ra:

doimiy muassasani tashkil etgan norezidentning xorijdagi hisobvarag'iga o'tkazish uchun;

chet el valyutasidagi operatsiyalar bo'yicha bankning vositachilik haqini, xodimlarning O'zbekiston Respublikasidan tashqariga xizmat safariga jo'natilishi bilan bog'liq xarajatlarni (shu jumladan, naqd shaklda) to'lash uchun;

ichki valyuta bozorida sotish uchun;

joriy xalqaro operatsiyalar uchun foydalanilishi mumkin.

19. Tovar-xomashyo birjalarida tovarlarni va (yoki) qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilarining ochiq elektron savdolarida aksiyalarni sotib olishni (sotishni) amalga oshiruvchi norezident yuridik shaxslarning chet el valyutasidagi hisobvaraqlariga:

ushbu savdolarida ishtirok etayotgan norezident yuridik shaxsning xorijdagi hisobvarag'idan o'tkazilgan mablag'lar;

ichki valyuta bozorida sotib olingan mablag'lar;

tovar-xomashyo birjalarida tovarlarni va (yoki) qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilarining ochiq elektron savdolarida aksiyalarni sotishdan tushgan mablag'lar kiritilishi mumkin.

Tovar-xomashyo birjalarida tovarlarni va (yoki) qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilarining ochiq elektron savdolarida aksiyalarni sotib olishni (sotishni) amalga oshiruvchi norezident yuridik shaxslarning chet el valyutasidagi hisobvaraqlaridagi mablag'lar hisobvaraqa egasining topshirig'iga ko'ra:

ichki valyuta bozorida sotilishi;

tovar-xomashyo birjalarida tovarlarni va (yoki) qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilarining ochiq elektron savdolarida aksiyalarni sotib olish uchun foydalanilishi;

tovar-xomashyo birjalarida tovarlarni va (yoki) qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilarining ochiq elektron savdolarida ishtirok etayotgan norezident yuridik shaxsning xorijdagi hisobvaraqlariga o'tkazilishi mumkin.

Oldingi tahrirga qarang.

19¹. Kripto-birja ishtirokchilari bo'lgan norezident yuridik shaxslarning chet el valyutasidagi hisobvaraqlariga ularning xorijdagi hisobvaraqlaridan o'tkazilgan (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mga nisbatan rasmiy kurslari belgilanadigan chet el valyutalarida) mablag'lar hamda kripto-birjada kripto-aktivlarni sotishdan tushgan mablag'lar kiritilishi mumkin.

Ushbu mablag'lar kripto-aktivlarni sotib olish uchun kripto-birjaga hamda mazkur norezident yuridik shaxslarning xorijdagi (mablag'lar kelib tushgan davlatdagi) o'z hisobvaraqlariga o'tkazilishi mumkin.

Kripto-birja ishtirokchilari bo'lgan norezident yuridik shaxslarning hisobvaraqa'iga kelib tushgan mablag'lardan boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin emas.

Tijorat banklari, mazkur hisobvaraqlar orqali o'tkaziladigan operatsiyalarni amalga oshirishda mavjud risklarni baholagan holda, ushbu operatsiyalar jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablari doirasida bo'lishini ta'minlaydi.

(19¹-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2023-yil 4-yanvardagi 30/35-sonli qaroriga (ro'yxat raqami 3281-2, 08.02.2023-y.) asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.02.2023-y., 10/23/3281-2/0082-son)

20. Norezident jismoniy shaxslarning chet el valyutasidagi hisobvaraqlariga:

yo'lovchi bojxona deklaratsiyasi asosida (deklaratsiya to'ldirish talab etilmaydigan holatlar bundan mustasno) xorijdan olib kelingan naqd chet el valyutasi;

nosavdo tUSDagi o'tkazmalar;

ichki valyuta bozorida sotib olingan mablag'lar;

qonuniyligini asoslantiruvchi hujjatlar asosida olingan mablag'lar kiritilishi mumkin.

Norezident jismoniy shaxslarning chet el valyutasidagi hisobvaraqlaridagi mablag'lardan hisobvaraqa egasining topshirig'iga ko'ra:

nosavdo tUSDagi o'tkazmalar uchun;

ichki valyuta bozorida sotish uchun;

naqd chet el valyutasida yechib olish uchun;

xorijiy banklarda ochilgan o'z hisobvaraqlariga o'tkazish uchun foydalanilishi mumkin.

4-bob. Ichki valyuta bozorida xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan chet el valyutasini sotish va sotib olish operatsiyalarini amalga oshirish

21. Ichki valyuta bozorida quyidagi operatsiyalar amalga oshiriladi:

valyuta birjasida hamda O'zbekiston Respublikasi banklari o'rtasida chet el valyutasini sotish va sotib olish;

tijorat banklari tomonidan o'z mijozlarining valyuta mablag'larini shartnoma (oferta bitimi) asosida sotish va sotib olish;

tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslar bilan valyuta ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirish;

tijorat banklari tomonidan banklararo savdo sessiyasida valyuta mablag'larini sotib olish va sotish;

tovar-xomashyo birjalarida tovarlarni va (yoki) qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilarining ochiq elektron savdolarida aksiyalarni sotishdan olingan mablag'lar hisobiga norezidentlar tomonidan, shu jumladan norezidentlar nomidan birja brokerlari va investitsiya vositachilari orqali valyuta mablag'larini sotib olish va sotish.

Ichki valyuta bozorida chet el valyutasining sotib olinishi va sotilishi rezidentlar va norezidentlar tomonidan joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha, shuningdek norezidentlarning to'g'ridan to'g'ri investitsiyalari va daromadlarini repatriatsiya qilish maqsadlari uchun cheklovlersiz amalga oshiriladi.

22. O'zbekiston Respublikasi budget tizimi budgetlarining chet el valyutasidagi Yagona g'azna hisobvarag'idan foydalangan holda xizmat ko'rsatiladigan buyurtmachilar tomonidan chet el valyutasining sotib olinishi va sotilishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-maydagi 329-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi budget tizimi budgetlari chet el valyutasidagi mablag'larining g'azna ijrosi tartibi to'g'risidagi **nizom** talablari asosida amalga oshiriladi.

23. Xo'jalik yurituvchi subyektlar chet el valyutasini sotib olish yoki sotish uchun xizmat ko'rsatuvchi bankka buyurtma taqdim etadilar. Bunda buyurtma shakli bank boshqaruvi tomonidan tasdiqlanadi va unda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi shart:

mijoz nomi;

valyuta turi va summasi;

sotib olish yoki sotish kursi.

Chet el valyutasini sotib olish uchun taqdim etiladigan buyurtmalarda qo'shimcha ravishda quyidagi ma'lumotlar ham ko'rsatiladi:

chet el valyutasini sotib olish maqsadi;

valyuta operatsiyalarini asoslovchi hujjatlar.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan chet el valyutasini sotib olish yoki sotish uchun buyurtmalar xizmat ko'rsatuvchi banklarga masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlari orqali elektron ko'rinishda ham taqdim qilinishi mumkin.

Buyurtmada qayd etilgan ma'lumotlarning haqqoniyligi yuzasidan javobgarlik mazkur buyurtmani taqdim etgan xo'jalik yurituvchi subyekt zimmasiga yuklatiladi.

Chet el valyutasidagi kredit va lizinglarga xizmat ko'rsatish, xorijiy investorlar foydasi, dividend va boshqa daromadlarni repatriatsiya qilish maqsadida chet el valyutasini sotib olishda, xizmat ko'rsatuvchi banklar ushbu operatsiyalarning haqqoniyligini tasdiqlovchi qo'shimcha hujjatlarni talab qilishga haqlidir.

24. Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan chet el valyutasini sotib olish uchun taqdim etilgan buyurtmani ko'rib chiqish xizmat ko'rsatuvchi banklarning tegishli tarkibiy bo'linmasi (bundan buyon matnda tarkibiy bo'linma deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

Chet el valyutasini sotib olish uchun taqdim etilgan buyurtmalar tarkibiy bo'linma tomonidan qabul qilingan kundan keyingi bank ish kunidan kechiktirmasdan ko'rib chiqiladi hamda natijasi bo'yicha buyurtmani qanoatlantirish yoki uni asoslantirilgan holda rad etish to'g'risida xulosa tayyorlanadi va tasdiqlanadi.

Tarkibiy bo'linma faoliyatini nazorat qilish hamda buyurtmani ko'rib chiqish natijasi bo'yicha tayyorlangan xulosani tasdiqlash bank boshqaruvi raisining tegishli o'rinbosari tomonidan amalga oshiriladi.

Buyurtma bo'yicha xulosalarning qonuniyligi uchun uni tasdiqlagan bank boshqaruvi raisining tegishli o'rinbosari javobgar hisoblanadi.

25. Chet el valyutasini sotib olish yoki sotish uchun tomonlar kelishuviga ko'ra bir martalik bosh shartnoma yoki har bir operatsiya bo'yicha alohida shartnomalar rasmiylashtirilishi mumkin. Bunda shartnomalar xizmat ko'rsatuvchi banklarning tegishli dasturiy ta'minot vositasi orqali elektron shaklda ham tuzilishi mumkin.

26. Xizmat ko'rsatuvchi banklar tomonidan ichki valyuta bozorida sotib olingan chet el valyutasini kirim qilish uchun mijoz nomiga maxsus hisobvaraqlar ochiladi.

Maxsus valyuta hisobvarag'iga ushbu hisobvaraقدan ilgari chiqarilgan va foydalanilmagan, shuningdek boshqa sabablarga ko'ra qaytarilgan chet el valyutasi ham kirim qilinadi.

Oldingi tahrirga qarang.

27. Qanoatlantirish to'g'risida xulosa tasdiqlangan buyurtmalar bo'yicha tijorat banki va mijozlar o'rtasidagi barcha hisob-kitoblar keyingi bank ish kunidan kechiktirilmagan holda amalga oshiriladi.

(27-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2021-yil 25-fevraldagi 3/4-sonli qarori (ro'yxat raqami 3281-1, 25.03.2021-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021-y., 10/21/3281-1/0237-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Belgilangan vaqtda hisob-kitoblar yakunlanmagan bo'lsa, kelishuv bekor qilingan hisoblanadi.

(27-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2021-yil 25-fevraldagi 3/4-sonli qarori (ro'yxat raqami 3281-1, 25.03.2021-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021-y., 10/21/3281-1/0237-son)

28. Maxsus valyuta hisobvaraqlariga kiritilgan mablag'lar qat'iy ravishda buyurtmalarda ko'rsatilgan maqsadlar uchun sarflanadi.

29. Bank mijoz tomonidan sotib olinib, mijozning maxsus valyuta hisobvarag'iga kiritilgan vaqtdan e'tiboran yetti bank ish kuni mobaynida foydalanilmagan valyuta mablag'lari, ushbu muddat tugagandan keyingi bank ish kunidan kechiktirilmagan holda tijorat banklariga qayta sotilishi shart.

Maxsus valyuta hisobvarag'idan ilgari chiqarilgan va foydalanilmagan, shuningdek boshqa sabablarga ko'ra qaytarilgan chet el valyutasi ham uch bank ish kuni mobaynida tijorat banklariga qayta sotilishi yoki buyurtmada ko'rsatilgan maqsadlar uchun takroran o'tkazib berilishi lozim.

Oldingi tahrirga qarang.

Chet el valyutasining qayta sotilishi sotuv kunidagi talab va taklif asosida shakllanadigan bozor kursida akseptsiz ravishda amalga oshiriladi.

(29-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2021-yil 25-fevraldagi 3/4-sonli qarori (ro'yxat raqami 3281-1, 25.03.2021-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021-y., 10/21/3281-1/0237-son)

30. Ichki valyuta bozorida chet el valyutasini sotib olish va sotish operatsiyalari chet el valyutasiga bo'lgan talab va taklif asosida shakllanadigan valyuta kursi bo'yicha amalga oshiriladi.

31. Birja savdolarining tashkil qilinishi va o'tkazilishi valyuta birjasining ichki qoidalariga asosan amalga oshiriladi.

5-bob. Jismoniy shaxslar bilan valyuta ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirish tartibi

32. Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslar bilan valyuta ayirboshlash operatsiyalari cheklovlarsiz amalga oshiriladi.

Norezident jismoniy shaxslarga chet el valyutasini sotish ular tomonidan respublika hududida milliy valyuta mablag'larining qonuniy manbalardan olinganligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilganda amalga oshiriladi. Bunda operatsiya summasi taqdim etilgan hujjatlarda ko'rsatilgan summa miqdoridan oshmasligi lozim.

33. Tijorat banklari jismoniy shaxslar bilan valyuta ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirishda Markaziy bankning Banklararo yagona elektron tizimidan foydalanadilar.

Banklararo yagona elektron tizimidan foydalanish uchun tijorat banklari valyuta ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshiruvchi chakana amaliyotlar kassalari, bank xizmatlari ofislari, banklarning tegishli tarkibiy bo'linmalari hamda valyuta ayirboshlash shoxobchalarining joylashgan joyi (pochta manzili) ko'rsatilgan holda Markaziy bankning tegishli hududiy Bosh boshqarmasiga ma'lumot taqdim etadi.

Markaziy bankning tegishli hududiy Bosh boshqarmasi tijorat banklari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida valyuta ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshiruvchi chakana

amaliyotlar kassalari, bank xizmatlari ofislari, banklarning tegishli tarkibiy bo'limlari hamda valyuta ayirboshlash shoxobchalarini ro'yxatga oladi va Banklararo yagona elektron tizimiga kiritish uchun tegishli ma'lumotni Markaziy bankga taqdim etadi.

Jismoniy shaxslar tomonidan valyuta ayirboshlash operatsiyalari avtomatlashtirilgan bank shoxobchalari (bankomatlar) hamda masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlari orqali amalga oshirilganda Banklararo yagona elektron tizimdan foydalanish talab etilmaydi.

34. Chet el valyutasini sotib olish va sotish kurslari tijorat banklari tomonidan chet el valyutasiga bo'lgan talab va taklifni hisobga olgan holda mustaqil ravishda belgilanadi va ushbu kurslarga tijorat banklari tomonidan operatsion kun davomida o'zgartirish kiritilishi mumkin.

35. Tijorat banklarida jismoniy shaxslar bilan barcha turdagi valyuta ayirboshlash operatsiyalari amalga oshiriladi.

Tijorat banklari tomonidan shikastlanish belgilari mavjud muomalaga yaroqli banknotalar bilan valyuta ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirish, shuningdek muomalaga yaroqsiz banknotalarni inkassoga qabul qilishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

36. Emitent-davlat tomonidan banknotaga nisbatan o'rnatilgan talablarga javob beradigan asosiy belgilarga (emitent bank nomi, seriya va tartib raqami, valyuta nominalining raqamlar va so'z bilan ko'rsatilishi, old va orqa tomonining asosiy tasviri (surati, portreti), qalbakilashtirilishidan himoya qiluvchi elementlari (suv belgisi, magnitli belgilar, qog'ozga kiritilgan rangli tolalar, jumladan ultrabinafsha nurlarda ko'rinadigan tolalar, konfyetti (rangli qog'oz tangachalar), himoya iplari, mikromatn, nur sochuvchi rasmlar va boshqalar) ega bo'lgan banknota qonuniy to'lov vositasi hisoblanadi.

37. Quyidagi shikastlanish belgilari mavjud bo'lgan banknotalar muomalaga yaroqli qonuniy to'lov vositasi hisoblanadi:

banknota tasvirini (shaklini) aniqlash imkonini beradigan darajada siyqalangan va ifloslangan bo'lsa (siyqalanish banknotaning haqiqiylikini aniqlashga xalaqit bermaydigan va asosiy belgilaridan birining 50 foizidan ortig'ini to'sib qo'ymagan holatlar bundan mustasno);

banknota enining (bo'yining) to'rtidan bir qismidan oshmagan yopishtirilgan yirtiqqlarga ega bo'lsa;

yopishtirib qo'yilgan burchaklari yoki qismlari (1 sm² dan oshmagan) bo'lsa hamda yirtib olingan burchaklari yoki qismlar aniq ushbu banknotaga tegishli bo'lsa;

mayda dog'lar, yozuvlar, shtamp izi bo'lganda (bunda yozuv yoki shtamp izi ikki donadan ortiq bo'lsa, banknota tugatilganligi, soxtaligi yoki namunaviylikini tasdiqlovchi shtamplar bundan mustasno) hamda ular banknotaning haqiqiylikini aniqlashga xalaqit bermaydigan asosiy belgilaridan birining 50 foizidan ortig'ini to'sib qo'ymagan bo'lsa;

banknotada diametri 1 mm dan oshmagan va ikkitadan ortiq teshiklar bo'lsa, bunda teshiklar banknotaning haqiqiylikini aniqlashga xalaqit bermaydigan va asosiy belgilaridan birining 50 foizidan ortig'ini to'sib qo'ymagan bo'lishi kerak.

38. Mazkur Qoidalarning [37-bandida](#) ko'rsatilgan me'yorlardan ortiq bo'lgan va quyidagi shikastlanish belgilari mavjud bo'lgan banknotalar muomalaga yaroqsiz hisoblanadi:

bo'laklarga ajratilgan, shu jumladan yopishtirilgan bo'lsa;

dastlabki rangi o'zgargan yoki rangi o'chgan bo'lsa;

yongan yoki kuygan holatda bo'lsa;

qonuniy to'lov vositasi ekanligini ko'rsatuvchi asosiy belgilaridan birining 50 foizidan ortiq qismiga moy, bo'yoq yoki siyoh to'kilgan bo'lsa;

banknotada kimyoviy reaktivlar ta'siri bo'lsa;

muayyan darajada qasddan shikastlangan holda tasvir (surat, portret) o'zgartirilganda, nominali o'zgartirilgan, himoya ipchalari olib tashlangan, katta hajmdagi yozuvlar bo'lsa;

banknotalar aniq bosma xatoga ega bo'lgan (suv belgisi yoki himoya ipchalarining yo'qligi yoki noto'g'ri joylashganligi), tasvirlari to'liq bosilmagan yoki surkalib ketgan bo'lsa;

banknota geometrik o'lchamining 3 mm ga teng yoki undan ortiqqa o'zgargan bo'lsa;

banknota tasvirini (suratini, portretini, shaklini) aniqlash imkonini bermaydigan darajada sezilarli siyqalangan va ifloslangan bo'lsa;

o'zining qattqlik darajasini sezilarli darajada yo'qotib, yumshoq holga kelgan banknotlar.

Tegishli xorijiy davlatning emitent banki tomonidan e'lon qilingan sanadan keyin muomiladan chiqarilgan hamda banknota tugatilganligi, soxtaligi yoki namunaviyligini tasdiqlovchi shtamplar mavjud bo'lgan banknotalar to'lovga yaroqsiz deb e'tirof etiladi.

39. Tegishli xorijiy davlatning emitent banki tomonidan e'lon qilingan sanadan keyin muomaladan chiqarilgan hamda banknota tugatilganligi, soxtaligi yoki namunaviyligini tasdiqlovchi shtamplar mavjud bo'lgan banknotalar bilan valyuta ayirboshlash operatsiyalari amalga oshirilmaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

40. Jismoniy shaxslar tijorat bankining masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlaridan foydalangan holda chet el valyutasini sotishi, sotib olishi va qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa operatsiyalarni amalga oshirishlari mumkin. Buning uchun jismoniy shaxslar masofaviy xizmat ko'rsatish tizimini kompyuter qurilmasiga (shu jumladan, planshet, mobil telefon va boshqa qurilmalarga) yuklab oladi hamda undan foydalanish shartlari bilan bog'liq ofertani akseptlaydi.

(40-band O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 28-iyuldagi 16-mh-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 3313, 28.07.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son)

41. Valyuta ayirboshlash shoxobchalarini ochish va yopish, xavfsizlik talablari, shuningdek ayirboshlash operatsiyalarida qimmatliklar bilan ishlash Tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, naqd pul va boshqa qimmatliklarni inkassatsiya qilishga doir **yo'riqnomada** (ro'yxat raqami 3028, 2018-yil 29-iyun) belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

42. Valyuta ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshiruvchi tijorat banki xodimlariga quyidagilar taqiqlanadi:

valyuta ayirboshlash operatsiyalarini sirdan amalga oshirish;

tegishli ma'lumotnoma bermasdan valyuta ayirboshlash operatsiyalarini bajarish yoki valyuta ayirboshlash operatsiyasini bajarmasdan tegishli ma'lumotnomalarni berish.

43. Valyuta ayirboshlash operatsiyalarini rasmiylashtirishda foydalaniladigan blanklar shakli, shuningdek shoxobcha xodimlari soni tijorat banklari tomonidan mustaqil belgilanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

Valyuta ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshiruvchi tarixiy tuzilmalarning qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq faoliyat yuritishi tijorat banki tomonidan doimiy ravishda monitoring qilib boriladi.

(43-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 28-iyuldagi 16-mh-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 3313, 28.07.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son)

6-bob. O'zbekiston Respublikasi hududida naqd chet el valyutasini qabul qilish tartibi

44. O'zbekiston Respublikasi hududida bank kassalariga AQSh dollari, ingliz funt sterlingi, Yevro, shveysariya franki, yapon iyenasi hamda tijorat banklarining ixtiyoriga ko'ra boshqa chet el valyutalari qabul qilinishi mumkin.

45. O'zbekiston Respublikasi hududida naqd chet el valyutasi tijorat banklari kassalariga quyidagi holatlarda qabul qilinishi mumkin:

konsullik yig'img'larini to'lash uchun;

xorijda o'tkazilgan ko'rgazma va yarmarkalarda sotilgan tovarlar uchun;

bojsiz savdo do'konlaridagi hisob-kitoblar, shuningdek xalqaro tashishlarda transport vositalarining qatnov yo'llarida yo'lovchilarga tovarlarni realizatsiya qilish va xizmatlar ko'rsatish chog'idagi hisob-kitoblar bilan bog'liq operatsiyalar uchun;

xorijiy xizmat safari xarajatlari uchun olingan bo'naklarning qaytarilishida;

bank xizmatlarini amalga oshirish bilan bog'liq operatsiyalar uchun;

yuridik shaxslarning ustav fondiga (ustav kapitaliga) mablag'larni kiritish uchun;

xayriya faoliyati bilan bog'liq operatsiyalar uchun;

eksport qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun;

norezident jismoniy shaxs tomonidan tashqi savdo shartnomasi bo'yicha debitor qarzdorliklarni so'ndirish uchun;

norezidentlarning vakolatxonalari nomiga xorijdan olib kelingan yoki pochta jo'natmalari orqali yuborilgan naqd chet el valyutasi;

milliy tashuvchilar (rezidentlar) tomonidan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida transport ekspeditsiyasi (yuklarni tashish) shartnomalari bo'yicha xalqaro tovar-transport yuk xati asosida norezidentlardan olingan naqd chet el valyutasi.

Oldingi tahrirga qarang.

46. Mazkur Qoidalarning 45-bandi **oltinchi — o'n ikkinchi xatboshilarida** nazarda tutilgan hollarda norezident jismoniy shaxs tomonidan quyidagi hujjatlardan biri taqdim etilganda naqd chet el valyutasi bank tomonidan qabul qilinadi, bundan qonunchilik hujjatlariga muvofiq yo'lovchi bojxona deklaratsiyasi to'ldirilishi talab etilmaydigan holatlar mustasno:

(46-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 28-iyuldagi 16-mh-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 3313, 28.07.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son)

norezident jismoniy shaxs tomonidan naqd chet el valyutasi xorijdan olib kelganligini tasdiqlovchi yo'lovchi bojxona deklaratsiyasi, tegishli ishonchnoma asosida;

norezident jismoniy shaxs nomiga uning O'zbekiston Respublikasi banklarida ochilgan hisobvaraqlariga chet eldan kelib tushgan mablag'larning yechilganligini tasdiqlovchi bank ma'lumotnomalari.

Norezidentlardan bank kassasiga qabul qilingan valyuta mablag'larining summasi yo'lovchi bojxona deklaratsiyasida ko'rsatiladi hamda bank shtampi bilan tasdiqlanadi. Mazkur yo'lovchi bojxona deklaratsiyasining nusxasi kunlik hujjatlar yig'majildiga tikib qo'yiladi.

Naqd chet el valyutasi norezident tomonidan berilgan ishonchnoma asosida rezident jismoniy shaxslardan qabul qilinganda, pul mablag'lari ushbu rezident jismoniy shaxs tomonidan xorijdan olib kelinganligini tasdiqlovchi yo'lovchi bojxona deklaratsiyasi taqdim etilishi lozim.

Oldingi tahrirga qarang.

Qonunchilik hujjatlariga muvofiq naqd chet el valyutasini xorijdan olib kirishda yo'lovchi bojxona deklaratsiyasi to'ldirilishi talab etilmaydigan miqdordagi valyuta mablag'lari bank kassalariga topshirilganda asoslantiruvchi hujjat talab etilmaydi.

(46-bandning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 28-iyuldagi 16-mh-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 3313, 28.07.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son)

7-bob. Tijorat banklari tomonidan naqd valyuta mablag'larini O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish va olib kirish

Oldingi tahrirga qarang.

47. Tijorat banklari tomonidan naqd valyuta mablag'larini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankini xabardor qilish tartibida amalga oshiriladi.

Naqd valyuta mablag'larining O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilganligi to'g'risidagi xabarnomalar tijorat banklari tomonidan uch kun muddat davomida Markaziy bankka taqdim etilishi lozim.

(47-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2021-yil 25-fevraldagi 3/4-sonli qarori (ro'yxat raqami 3281-1, 25.03.2021-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021-y., 10/21/3281-1/0237-son)

Oldingi tahrirga qarang.

47¹. Tijorat banklari tomonidan naqd valyuta mablag'larini O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish Markaziy bankning ruxsati asosida amalga oshiriladi.

(47¹-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2021-yil 25-fevraldagi 3/4-sonli qaroriga (ro'yxat raqami 3281-1, 25.03.2021-y.) asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021-y., 10/21/3281-1/0237-son)

Oldingi tahrirga qarang.

48. Markaziy bankning ruxsatini olish uchun tijorat banklari O'zbekiston Respublikasidan olib chiqishga mo'ljallangan valyutaning turi, uning summasi, valyuta mablag'lari qaysi davlatga olib chiqilishi, xorijiy bankning nomi, naqd valyuta mablag'larini olib chiqish maqsadlari ko'rsatilgan arizani Markaziy bankka taqdim etadi.

(48-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2021-yil 25-fevraldagi 3/4-sonli qarori (ro'yxat raqami 3281-1, 25.03.2021-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021-y., 10/21/3281-1/0237-son)

Oldingi tahrirga qarang.

49. Tijorat banklarining naqd valyuta mablag'larini olib chiqish uchun murojaati Markaziy bank tomonidan uch bank ish kunidan oshmagan muddatda ko'rib chiqiladi. Ko'rib chiqish natijalari bo'yicha tijorat banklariga naqd valyuta mablag'larini O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish uchun ruxsat beriladi.

Tijorat banklariga naqd valyuta mablag'larini O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish uchun ruxsat berishni rad qilish faqat tijorat banklarining murojaati mazkur Qoidalarning 48-bandida belgilangan talablarga muvofiq bo'lmaganda amalga oshiriladi.

(49-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2021-yil 25-fevraldagi 3/4-sonli qarori (ro'yxat raqami 3281-1, 25.03.2021-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021-y., 10/21/3281-1/0237-son)

8-bob. Yakuniy qoida

Oldingi tahrirga qarang.

50. Mazkur Qoidalar talablarining buzilishida aybdor shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

(50-band O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 28-iyuldagi 16-mh-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 3313, 28.07.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son)

O'zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish qoidalariga
ILOVA

Rezident yuridik shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida ochilgan bank hisobvaraqlari hamda ularning harakati to'g'risida

MA'LUMOT

T/r	Mijoz nomi	Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR)	Chet eldagi bank nomi	Bank identifikatsiyasi kodi (BIK) yoki CODE (SWIFT)	Chet eldagi bank joylashgan mamlakat kodi	Chet eldagi bank joylashgan mamlakat nomi	Chet eldagi bankning to'liq manzili
1	2	3	4	5	6	7	8

Jadvalning davomi

T/r	Mijoz nomi	Chet eldagi bankda ochilgan hisobvaraqlar	Chet eldagi bankda ochilgan hisobvaraqlar valyuta kodi	Chet el bankida hisobvaraqlar ochilgan sana	Chet elda hisobvaraqlar ochilish uchun asos bo'luvchi hujjat	Chet el bankida hisobvaraqlar yopilgan sana	Hisobvaraqlar holati belgisi
		9	10	11	12	13	14

T/r	Mijoz nomi	Hisobot davri boshiga hisobvaraqdagi qoldiq summa	Davr (oy)	Chet el bank hisobvarag'iga kelib tushgan pul mablag'lari			Chet el bank hisobvarag'idan pul mablag'lari o'tkazmasi		
				summa	to'lovchining davlati	to'lov maqsadi	summa	qabul qiluvchining davlati	to'lov maqsadi
		15	16	17	18	19	20	21	22

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 29 avgusidagi 18/5-son qaroriga
2-ILOVA

O'z kuchini yo'qotgan deb topilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar

RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi tomonidan 1998-yil 5-sentabrda 231-son bilan tasdiqlangan Tijorat banklari tomonidan norezidentlarning O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasidagi hisobvaraqlarini yuritish tartibi (ro'yxat raqami 510, 1998-yil 22-oktabr).

2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2004-yil 21-fevraldagi 231-son "Vakolatli banklar tomonidan norezidentlarning O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasidagi hisobvaraqlarini yuritish tartibiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qarori (ro'yxat raqami 510-1, 2004-yil 29-mart) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004-y., 13-son, 160-modda).

3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2009-yil 26-dekabrda 38/11-son "Vakolatli banklar tomonidan norezidentlarning O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasidagi hisobvaraqlarini yuritish tartibiga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi qarori (ro'yxat raqami 510-2, 2010-yil 4-fevral) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010-y., 5-son, 47-modda).

4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2011-yil 26-noyabrda 35/3-son "Vakolatli banklar tomonidan norezidentlarning O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasidagi hisobvaraqlarini yuritish tartibiga o'zgartirish kiritish haqida"gi qarori (ro'yxat raqami 510-3, 2011-yil 22-dekabr) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011-y., 51-son, 553-modda).

5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2018-yil 30-iyundagi 22/7-son "Vakolatli banklar tomonidan norezidentlarning O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasidagi hisobvaraqlarni yuritish tartibiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarori (ro'yxat raqami 510-4, 2018-yil 28-iyul) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2018-y., 31-son, 648-modda).

6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2019-yil 16-fevraldagi 3/7-son "Tijorat banklari tomonidan norezidentlarning O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasidagi hisobvaraqlarini yuritish tartibiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarori (ro'yxat raqami 510-5, 2019-yil 25-mart) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2019-y., 13-son, 244-modda).

7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2019-yil 20-iyuldagi 16/6-son "Tijorat banklari tomonidan norezidentlarning O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasidagi hisobvaraqlarini yuritish tartibiga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi qarori (ro'yxat raqami 510-6, 2019-yil 23-avgust) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2019-y., 34-son, 616-modda).

8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi tomonidan 1998-yil 5-sentabrda 232-son bilan tasdiqlangan Tijorat banklari tomonidan xorijiy valyutadagi hisobvaraqlarni yuritish tartibi (ro'yxat raqami 511, 1998-yil 22-oktabr).

9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi tomonidan 1999-yil 20-fevralda 232-1-son bilan tasdiqlangan Vakolatli banklarda chet el valyutasidagi hisobvaraqlarni yuritish tartibiga 1-sonli o'zgartirish (ro'yxat raqami 511-1, 1999-yil 1-mart).

10. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2003-yil 1-martdagi 232-2-son “Vakolatli banklar tomonidan chet el valyutasidagi hisobvaraqlarni yuritish tartibiga o‘zgartirish kiritish haqida”gi qarori (ro‘yxat raqami 511-2, 2003-yil 27-mart) (O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo‘mitalari va idoralarning normativ hujjatlari axborotnomasi, 2003-y., 5-6-son).

11. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2003-yil 31-iyuldagi 232-3-son “Vakolatli banklar tomonidan chet el valyutasidagi hisobvaraqlarni yuritish tartibiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qarori (ro‘yxat raqami 511-3, 2003-yil 12-avgust) (O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo‘mitalari va idoralarning normativ hujjatlari axborotnomasi, 2003-y., 15-son).

12. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2004-yil 21-fevraldagi 232-4-son “Vakolatli banklar tomonidan chet el valyutasidagi hisobvaraqlarni yuritish tartibiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qarori (ro‘yxat raqami 511-4, 2004-yil 30-mart) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004-y., 13-son, 165-modda).

13. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2009-yil 26-dekabrda 38/12-son “Vakolatli banklarda chet el valyutasidagi hisobvaraqlarning yuritilishi tartibiga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi qarori (ro‘yxat raqami 511-5, 2010-yil 4-fevral) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2010-y., 5-son, 48-modda).

14. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2011-yil 26-noyabrda 35/2-son “Vakolatli banklar tomonidan chet el valyutasidagi hisobvaraqlarni yuritish tartibiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarori (ro‘yxat raqami 511-6, 2011-yil 22-dekabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-y., 51-son, 554-modda).

15. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2013-yil 23-noyabrda 22/3-son “Vakolatli banklar tomonidan chet el valyutasidagi hisobvaraqlarni yuritish tartibiga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qarori (ro‘yxat raqami 511-7, 2013-yil 3-dekabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 49-son, 638-modda).

16. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2017-yil 26-avgustda 21/7-son “Vakolatli banklar tomonidan chet el valyutasidagi hisobvaraqlarni yuritish tartibiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qarori (ro‘yxat raqami 511-8, 2017-yil 12-sentabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 37-son, 1016-modda).

17. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2017-yil 11-noyabrda 31/3-son “Tijorat banklar tomonidan chet el valyutasidagi hisobvaraqlarni yuritilishi tartibiga qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarori (ro‘yxat raqami 511-9, 2017-yil 23-noyabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 47-son, 1174-modda).

18. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2018-yil 28-aprelda 16/7-son “Tijorat banklari tomonidan chet el valyutasidagi hisobvaraqlarni yuritish tartibiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarori (ro‘yxat raqami 511-10, 2018-yil 4-iyun) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2018-y., 23-son, 477-modda).

19. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2018-yil 30-iyunda 22/8-son “Tijorat banklari tomonidan chet el valyutasidagi hisobvaraqlarni yuritish tartibiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarori (ro‘yxat raqami 511-11, 2018-yil 28-iyul) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2018-y., 31-son, 649-modda).

20. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2019-yil 16-fevralda 3/6-son “Tijorat banklari tomonidan chet el valyutasidagi hisobvaraqlarni yuritish tartibiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarori (ro‘yxat raqami 511-12, 2019-yil 25-mart) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2019-y., 13-son, 245-modda).

21. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2008-yil 28-iyunda 15/1-son “O‘zbekiston Respublikasi banklari tomonidan valyutaviy svop operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori (ro‘yxat raqami 1839, 2008-yil 24-iyul) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-y., 29-30-son, 293-modda).

22. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2011-yil 21-mayda 16/1-son “O‘zbekiston Respublikasi banklari tomonidan valyutaviy svop operatsiyalarini amalga oshirish

tartibi to'g'risidagi nizomga qo'shimcha kiritish haqida"gi qarori (ro'yxat raqami 1839-1, 2011-yil 3-iyun) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011-y., 22-23-son, 242-modda).

23. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2018-yil 28-apreldagi 16/6-son "O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan valyutaviy svop operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qarori (ro'yxat raqami 1839-2, 2018-yil 4-iyun) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2018-y., 23-son, 478-modda).

24. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2018-yil 28-apreldagi 16/9-son "Tijorat banklarida jismoniy shaxslar bilan valyuta ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori (ro'yxat raqami 3029, 2018-yil 29-iyun) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2018-y., 26-son, 532-modda).

25. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2018-yil 10-noyabrdagi 35/3-son "Tijorat banklarida jismoniy shaxslar bilan valyuta ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qarori (ro'yxat raqami 3029-1, 2018-yil 11-dekabr) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2018-y., 50-son, 959-modda).

26. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2019-yil 20-iyuldagi 16/3-son "Tijorat banklarida jismoniy shaxslar bilan valyuta ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qarori (ro'yxat raqami 3029-2, 2019-yil 6-avgust) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2019-y., 32-son, 566-modda).

27. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2019-yil 24-avgustdagi 21/14-son "Tijorat banklarida jismoniy shaxslar bilan valyuta ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qarori (ro'yxat raqami 3029-3, 2019-yil 17-oktabr) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2019-y., 42-son, 808-modda).

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.08.2020-y., 10/20/3281/1242-son; 26.03.2021-y., 10/21/3281-1/0237-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son; 09.02.2023-y., 10/23/3281-2/0082-son)